



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Navoiy va Husayn Boyqaro bilan hamnafas do'stona munosabatda bo'ladi. Muzaffar Mirzo talqinida Navoiy va Husayn Boyqaro obrazlari yosh bo'lishlariga qaramay taqdirning shiddatli uqubatlariga bardosh bera olgani yorqin tasvirlarda aks etadi.

Muzaffar Mirzoning "Sham va shamshir" asari XV asr ikkinchi yarmi XVI asr boshlaridagi Xuroson davlatining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojida Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro siymosining qo'shgan hissasi, bu ikki buyuk zot hamkorligi, do'stligi natijasida Hirot Sharqning eng gullagan markaziga aylanishi xususidagi tarixiy faktlarni o'zida badiiy aks ettigan asar sifatida qadrlidir. Bugunga qadar yaratilgan tarixiy asarlar sirasida "Sham va shamshir" romani o'zining munosib o'rniga, ilmiy qimmatiga ega. Muallifning boy tajribasi, uzoq yillik kuzatishlari natijasida yuzaga kelgan mazkur asar sharq xalqlari tamadduniga buyuk hissasini qo'shgan ikki buyuk shaxs Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro siymosini o'zida yorqin ifodalangan tarixiy roman sifatida adabiyotshunoslikda muhim mavqega munosib deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аҳмедов Н. Ўзбек адабиётида Алишер Навоий сиймосини талқин этиш муаммолари. Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент: 1994. – 343 б.
2. Jo'rayeva H. Husayniy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. – Toshkent: NIF. MSH, 2021. – 116 b.
3. Музаффар Мирзо. Шам ва шамшир. – Тошкент: Ижод-пресс, 2021. – 496 б.
4. Юсупова М. Тарихий шахслар образининг лирик ва эпик талкини. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2023. – 138 б.

TUSHUNISH - O'RGANISHNING BOSH MEZONI (S. AYNINYING "ESKI MAKTAB" QISSASI ASOSIDA)

Nizomjonova Durdona Nizomjonovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

durdonanizomjonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid davrida maktablarda qo'llanilgan usullar va idrok etish, tushunishga asoslangan usuli savtiya Sadriddin Ayniyning "Eski maktab" asari asosida ochib beriladi. Shuningdek maqolada Sadriddin Ayniy faoliyati, bolalik davri, ilm olish jarayonlari haqida ham tahliliy mulohazalar berib boriladi. XIX asr o'rtalarida Turkiston o'lkasida boshlang'ich maktab hamda o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar mavjudligi, qishloq maktablarining ko'pchiligi diniy ta'lim beruvchi eng oddiy boshlang'ich maktablar ekanligi, Ayniy ham shunday maktablarning birida ta'lim ko'rganligi, bu maktablarda masjidlarining imomlari va mullalar dars berganligi dalillar asosida yoritilgan. Oldingi davrda ham, hozirgi davrda ham qo'llaniladigan usullar, metodlar tushunishga asoslanishi, shunda o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari paydo bo'lishi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim shakllari, rus tuzem maktablari, madrasa, tarbiya, usuli savtiya, usuli maddiya, usuli hijoiya, abjad.



Аннотация: В данной статье на основе произведения Садриддина Айни «Старая школа» раскрываются методы, применявшиеся в школах в джадидский период, и в частности метод «усули савтия» (звуковой метод), основанный на восприятии и понимании. Также в статье приводятся аналитические рассуждения о деятельности Садриддина Айни, его детстве и процессе получения им образования. На основе доказательств освещается наличие в Туркестанском крае в середине XIX века начальных школ (мактабов), а также медресе, дававших среднее и высшее религиозное образование; тот факт, что большинство сельских школ являлись простейшими начальными школами, дававшими религиозное образование, что Айни также получил образование в одной из таких школ, и что в этих школах преподавали имамы мечетей и муллы. Приводятся мнения о том, что методы, применяемые как в прошлом, так и в настоящее время, должны основываться на понимании, так как это способствует появлению у учащихся навыков самостоятельного и критического мышления.

Ключевые слова: формы обучения, русско-туземные школы, медресе, воспитание, усули савтия (звуковой метод), усули маддия (метод протяжения гласных), усули хиджоия (слоговой метод), абджад.

Abstract: This article reveals the teaching methods used in schools during the Jadid period, particularly the 'usuli savtiya' (sound method) based on perception and understanding, using Sadriddin Ayni's work "The Old School" as a foundation. The article also provides analytical reflections on Sadriddin Ayni's activities, childhood, and educational process. It highlights, based on evidence, the existence of primary schools (maktab) and madrasas providing secondary and higher religious education in the Turkestan region in the mid-19th century. It notes that most village schools were the simplest primary schools offering religious education, taught by imams and mullahs from mosques, and that Ayni himself received education in such a school. The article presents the idea that teaching methods, both historical and contemporary, should be based on understanding, as this fosters the development of independent and critical thinking skills in students.

Keywords: forms of education, Russian-native schools, madrasa, upbringing, usuli savtiya (sound method), usuli maddiya (elongation method), usuli hijoiya (syllabic/alphabetical method), abjad.

Ma'lumki, har bir davrda bilim, ma'rifat, ilm olish va uni o'rgatish eng muhim masalardan biri hisoblangan va hozir ham ularni rivojlantirish, yangicha va qulay usullarini ishlab chiqish va eng asosiysi tushunish ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim tizimida eng dolzarb ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Har bir yangilik avvalgi eskilikning mevasi, moziyga qaytib ish ko'rish xayrlidir deganlaridek, pedagogika sohasida ham avvalgi ulug' adiblarning tutgan ishlaridan, yozib qoldirgan asarlaridan foydalanib ish tutish bu sohaning yangi qirralarini kashf etishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu borada Ayniy ham bizga o'z asarlari orqali ko'plab kerakli ma'lumotlar qoldirgan. "Eski maktab" asari muallifi Sadriddin Ayniy haqida bahs etsak, Ayniy 1878-yil 15-aprelda Buxoroning G'ijduvon tumanidagi oddiy dehqon oilasida tug'ilgan. Otasi Saidmurodxo'ja adabiyotga oshno, o'qimishli kishi bo'lgan. Bolasi maktab yoshiga yetgach Suktare qishlog'idagi eski maktabga beradi. Yozuvchi bu jarayonni asarda shunday yozadi: "Agar unutmagan bo'lsam, olti yasharlik vaqtim edi. Otam meni qishloq machiti oldidagi maktabga eltib berdi" [Ayniy 2023, 188]. Bunday maktablarda eskicha o'qitish usullaridan foydalanilar edi. O'qish-o'qitish usullarining yaroqsizligidan tashqari, maktab-madrasa talabalari



iqtisodiy ahvolining nihoyatda og'irligi tufayli o'qish 20-25 yilgacha cho'zilib ketar edi [Dolimov 2012, 273]. Yozuvchi o'zi yashab ishtirok etgan hodisalarni qalamga olib "Eski maktab" asarini yaratadi. Bu asar 1935-yilda yozilgan bo'lishiga qaramay asarning bosh qahramoni olti yoshli Sadriddin ya'ni adibning o'zi ishtirok etgani sababli asarda 1884-yilgi voqealar tasvirlangan deya olamiz. Aynan shu yili Xiva xoni Feruz tashabbusi bilan o'z saroyida maktab ochilib, rus o'qituvchisi va Mirzo, Rahmonquli qori kabi mahoratli ta'lim-tarbiya ustalari yoshlarga bilim berish bilan shug'ullanar edilar. Bundan tashqari Toshkenda 1884-yil 19-dekabrda rus maktablarida o'qiydigan o'zbek va tojik bolalari uchun birinchi rus-tuzem maktablari ochilgan [Hashimov, Nishonova 2005, 188]. Xuddi shu yili Ismoilbek G'aspirali muhim bir ishga qo'l urdi. U 12 bolani yangicha – "usuli jadid" bilan o'qitishga kirishdi. Qirq kun ichida ularning savodini chiqardi. Ammo Ayniy o'qigan maktabda hali ham eski usuldan foydalanib o'qitilardi. 1885-yilga kelib Markaziy Osiyoning hamma yerlari Rossiya tasarrufiga o'tdi va o'lkada Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Chor hukumati zulmi birinchi navbatda madaniyat, fan, san'at, ijtimoiy va pedagogik fikr, turmush tarziga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xalq o'zining milliy me'rosi, qadriyatlari va g'ururidan mahrum bo'la boshladi. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman imperatorga yo'llagan bir maktubida Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-ijtimoiy taraqqiyoti uch yuz yil orqaga surib yuborilganini maqtanib yozgan edi [Hashimov, Nishonova 2005, 179]. Bunday zulmning kasriga Sadriddin kabi ko'plab bolalar qolgan edi, "Eski maktab" qissasida ham eskicha o'qitish usuliga nisbatan adibning norozi kayfiyatini ko'rishimiz mumkin. Asarda bu kayfiyatni shunday ifodalaydi: "Domla ko'rpachasi ostidagi taxtachaga ko'p narsalarni yozib, otamga ko'rsatdi. Ammo otam savodli bo'lgani uchun domlaning yozganiga qarshi chiqdi va: "Buni bunday yozmaydilar", dedi. Boshda domla janjal chiqardi va otamning gaplarini qabul qilmadi. Lekin otam ham janjal ko'tarib, o'z gapini o'tkazdi va u biroz qizishib: "Unday bo'lsa, o'zingiz yozing", deb taxtachani otamning oldiga irg'itdi. Otam domla yozgan ba'zi narsalarni o'chirib, ularning o'rniga boshqatdan yozdi. Savodim chiqqandan so'ng otam meni sinov qildi. Men yozilgan narsalarni yodaki aytib bera oldim xolos. Otam dedi: "Sen to'tiqushsan, ayb senda emas, ayb sening domlang va xalfangda, ular senga saboqni to'tiqushga o'rgatganday yodlatganlar xolos, ammo hech bir narsani o'rgatmaganlar yoki o'rgata olmaganlar" [Ayniy 2023, 192].

XIX asr o'rtalarida Turkiston o'lkasida boshlang'ich maktab hamda o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar mavjud edi. Qishloq maktablarining ko'pchiligi diniy ta'lim beruvchi eng oddiy boshlang'ich maktablar edi. Ayniy ham shunday maktablarning birida ta'lim ko'rgan. Bu maktablarda masjidlarining imomlari va mullalar dars berardi. Bunday maktablarda o'qitish eng oddiy diniy vazifalarni yod oldirish bilan, ya'ni Qur'onni yodlab o'rgatish bilan cheklanardi. Bunday madrasalarda faqat o'g'il bolalar o'qir edi. Qizlarga boshlang'ich diniy ta'lim beradigan otinbibini maktablari esa asosan xususiy bo'lib, ba'zi domlalar xotinlarining va otinlarning uylarida tashkil qilingan.



Bunday maktablar muayyan o'quv rejasi va dasturiga ega bo'lmagan, o'qitish saviyasi otinoyinig bilim darajasiga bog'liq bo'lgan. "Katta yoshli o'quvchilardan biri otinoyiga yordamchi qilib saylangan va "halfa" deb atalgan. Otinoyiga ish haqi sifatida ota-onalar oziq-ovqat, kiyim-kechak va "o'tin puli", "bo'yra puli" berishgan. Qizlarga uy-ro'zg'or ishlaridan dastlabki mehnat ko'nikmalari ham berib borilgan. Bu fikrlarga dalil sifatida qissada shunday voqealar keltiriladi: "Domla yoshi kattaroq bir bolaga menga o'rgatishni buyurdi. Bolalar u bolani halfa der edilar. Domla: bugun bo'yralarning barisini titibsizlar, ertaga har birlaringiz sakkiz pul bo'yra puli keltiringlar! – dedi. Otam bir kun xatibni ko'rib: "Mening o'g'limni xotiningizda o'qiydigan qiz bolalar oldiga qabul qilishingizni so'rayman" - dedi. Xatib: "Halvoyini ko'proq bersangiz mayli", - dedi. Ertasi kun onam meni otinbibi maktabiga olib bordi. Nonxo'rakdan keyin shogirdlar otinbibining uyi va hovli yuzlarini toza qilib supurib berar edilar. Ba'zi kunlarda otinbibi qizlarga kir ham yuvdirar edi" [Ayniy 2023, 233]. Bundan ko'rinib turibdiki, u davrda qiz bolalarga alohida, o'g'il bolalarga alohida o'qishdan tashqari turli ko'nikmalar o'rgatilgan.

Jadidchilik davrida uch xil o'qitish usulidan foydalanilgan. Usuli hijoiyada bo'g'inlarga asoslanib ularni yodlatilgan. Asarda bu usulning namunalari ko'rishimiz mumkin. Bola aytganidek domla bo'g'inlarni aytib turadi, bolalar domlani ortidan qaytarib yodlaydi. (*Halfa meni o'z taxtachamga qaratib: "Alif, be, te, se deign", dedi. Men ham takrorladim. Keyin zer zabar darslari boshlandi. Alif zabar a, zer ye, pech u, - deya takror qilar edim. Otinbibi cho'pchani uchi bilan har bir harfni ko'rsatar, buning nomini aytirar edi. Lekin otinbibi ham mening u harfni tanish-tanimasligim bilan ishi yo'q edi. "Eski maktab"dan.*) Bolaning o'zi aytganidek, hech nimaga tushunmasdan avval harflarni keyin hijolarni keyin esa (abjad) so'zlarni yod olishgan. Bolalarda bu yoshda eslab qolish, yod olish qobiliyati kuchli bo'lganligi sababli barcha bolalar saboqlarni yod olishgan, xolos. Begona harflarni taniy olmagan, faqat yodlaganini sharillatib aytishgan. Bunday eski maktablar zamondan ancha ortda qolib ketgan. Bolalarning tushunmay yodlab olgan bilimlari hayoti davomida hech bir ishga yaramagan va hatto, esdan chiqarib yuborilgan. Saboqni tugatgach bolaning qo'lga yangi bir kitob berilsa, o'qish tugul harflarni tanishga ham qiynalgan. (*Bir kun otam menga abjad yozilgan taxtachamdagi naqshlarni bitta-bitta ko'rsatib: - Bu nima, bu nima? –deb so'ray boshladi. Men otamning so'raganlariga javib berolmasdim, negaki men bu mashqlarning nima ekanliklarini bilmas edim va shu kungacha biron kishi ularning nima ekanini menga ko'rsatib o'rgatmagan edi. "Eski maktab"dan.*) Bunday o'qitish uslubi bolalarni maktabdan zerikishiga, vaqtini behuda sarflashiga va o'z ustida mustaqil ishlay olmasligiga sabab bo'lgan. Domlarning ko'pi bolalar saboqlarni anglay bilishi bilan jiddiy shug'ullanmagan.

Usuli savtiya – tovush usuli xat-savod o'rgatish usullaridan. Bunda so'zning eng kichik bo'lagi, ya'ni nutq tovushlarini izchil idrok etish va nutq tovushlarini yozuv belgilari orqali tiklash asos qilib olinadi, bugungi kunda ham Alifbe o'rgatishda qo'llaniladi. Bu usul o'zbek maktablarida 19-asrning oxiri – 20-asr



boshlarida qo'llana boshlangan. Savtiya usuli yangi va tushunishga asoslangan bo'lganligi sababli avvalgilaridan samaraliroq hisoblanadi. "Eski maktab" qissasida Sadriddinning ikkala ustoz ham usuli hijoiya va usuli maddiyadan foydalanib saboq bergan. Natijada, bolalar saboqlarni ko'r-ko'rona yodlash bilan cheklangan. Bolalar to'tiqush kabi takrorlayotgan jumllarini aslida nima ekanligini ham bilishmaydi. Bolalar hech bir narsaga tushunmayotganini bilgan Saidmurodxo'ja ustozdan yaxshi saboq berishini talab qilsa, domla uni yomon otliqqa chiqaradi, tog'ri, hamma davrlarda ham yaxshi o'qitishni talab qilganlarga yomon inson sifatida qaralgan. Domlaning saboq berishidan ko'ngli to'lmagan Sadriddinning otasi boshqa ustozga o'g'lini beradi, afsuski, u yerdan ham tuzukroq ish chiqmaydi. Bola tushunyaptimi, tushunmayaptimi o'qituvchining ishi yo'q edi. Axiyri Saidmurodxo'ja tushuntirish (usuli savtiya) yo'lidan foydalanib, har bir narsani birma-bir o'rgatadi va bola hamma narsaga tushunib o'qishni davom ettiradi. Natijada, o'zidan katta mullavachchani el-u yurtning ko'z o'ngida bo'lgan bahsda yengadi. Eski maktabda tushuntirmay o'qitilgani yetmagandek, domla hali o'qita olish saviyasida bo'lmagan, yodlab olganlarini bolalarga takrorlatishdan narisiga o'ta olmaydigan halfaga bolalarning savodini, tarbiyasini va xavfsizligini ham topshirib qo'yadi. Aytayotgan so'zlarining mohiyatiga yetmagan bolalar zerikkanidan har xil bemani qiliqlar chiqara boshlashadi, ustiga ustak domladan qattiq tayoq yeb o'qishga bo'lgan qiziqishlari yana ham susayadi. Bunday vaziyatda kattalar ham o'rganishga qiziqmaydi va natijada o'qishni tark etadi yoki vaqtni zoye ketqazadi. Bolalar bir-biri bilan urushib, turli yomon o'yinlar o'ynab bir-biriga zarar berganlari yetmaganidek, bilim olmoqchi bo'lgan Sadriddin kabi sofdil, bilimga intilivchan o'quvchilarga zarar berib, o'qishini orqaga tortadi. Buning asosiy sababi domlaning e'tiborsizligi hamda bolalarga tushunarli va qiziqarli dars bera olmagan. Chunki bola nihol, uni qanday parvarish qilsa, shunday o'sadi. Ustozlar darslarni tushunarli, qiziqarli va zamonaviy usullardan foydalanib o'tishsa, o'quvchilar ham anglab o'zlarining yangi qirralarini ochadi ya'ni oldida turgan biror jumboqni anglagan holda boshqalarning yordamisiz yecha oladi. Xuddi Sadriddin otasini yordamisiz mullavachchani yenggani kabi. Bilimlar yodlatib qo'yilgan taqdirda esa bolaning yangi qirralari ochish qiyin bo'ladi, chunki u faqatgina yod olganlarinigina ayta oladi xolos. Usuli savtiyadan bugungi kunda bolaning savodini qisqa muddatda chiqarishda qo'llaniladi, bolalar o'qiyotgan so'zlarini tushunadilar va bilganlarini anglaydilar.

Sadriddin Ayniy jadid namoyandalari sifatida eski o'qitish tizimidan qoniqmay Buxoro amirligi hududida dastlabki "usuli savtiya" metodiga asoslangan "usuli jadid" maktablarini do'sti Mirzo Abdulvohid Munzim bilan birgalikda ochadi. "Musulmon o'qituvchilarning Toshkentda bo'lib o'tgan 1qurultoyi (1918-yil avgust) barcha o'zbek maktablarida tovush usulida dars berish haqida qaror qabul qilinadi. Maktabni darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash maqsadida shirkat tuzib o'quvchilar saviyasiga, ruhiyatiga mos keladigan darsliklar yaratadi" [Dolimov 2012, 273].



Fikrlarni xulosalasak, tushunish - o'rganishning asosiy va bosh me'zoni. Uning turli ko'rinishlari mavjud: o'qib tushunish, tinglab tushunish, ko'rib tushunish va h.k. O'qitish jarayonida o'quvchi o'rganayotganlarini anglamas ekan, uni jahonning eng zo'r olimi o'qitsa ham natija berishi qiyin. Bola o'rganganlariga tushunar ekan, hatto maktabga bormasdan ota-onasidan ham o'rgana oladi. Usuli savtiya idrok etgan, tushungan holda o'rgatish usuli bo'lganligi sababli necha asrlar o'tsa ham hali hanuz qo'llanilmoqda. Zero, tushunish - insonga mustaqil fikrlash, ma'lumotlarni analiz qilish va shu bilan birgalikda barcha foydali va kerakli narsalarni o'rganish uchun zamin yaratadi. Oldingi davrda ham, hozirgi davrda ham qo'llaniladigan usullar, metodlar tushunishga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Ayniy. Eski maktab. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023. – 240 b.
2. Dolimov U. Milliy uyg'onish pedagogikasi. –Toshkent: NOSHIR, 2012. – 384 B.
3. Pedagogika tarixi: Darslik. Q2/K. Hashimov, S. Nishonova. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005. – 304 b.
4. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma / Qambarov M. –Toshkent: Bayoz, 2022. – 288 b.
5. Ibragimov X. Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. Darslik. -Toshkent, 2008. –288 b.

“ARBAIN” VA “NAZM UL-JAVOHIR” DAGI TIL OFATIGA: HIKMATLAR VA HADISLAR HAQIDA

Qurbonboyeva Mohidil Isroil qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o'zbek tili va adabiyoti

universiteti 1-kurs magistri

Jahongirmohidil1329@gmail.com

Annotatsiya: Til insonga Alloh tomonidan berilgan ne'mat bo'lib, u aslida kichik hodisa bo'lsada, lekin uning ibodati va isyoni juda kattadir, biz tevarak-atrofdan nimani idrok qilsak, til barchasini o'zida mujassam qiladi, ularning bor-yo'qligi haqida xabar beradi, ilmga oid barcha narsani til oshkor qiladi.

Mazkur maqolada mutafakkir Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” va “Arbain” asarlari o'rganilgan. Tahlil uchun til ofatlari mavzusi tanlab olingan. Ushbu maqolada asarlar qiyosiy tipologik metod orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pandnoma asarlar, til sukuti, til zarbasi, hikmat, hadis, Ali ibn Abutolib, G'azzoliy, Hasan Basriy o'g'itlari.

Аннотация: Язык — великое благо, дарованное человеку Аллахом. Хотя это может показаться незначительным явлением, как поклонение, так и неповиновение, совершаемое посредством него, имеют огромное значение. Люди воспринимают окружающие их события и сообщают о них посредством языка. Знание, наука, размышление и духовность проявляются посредством языка. В данной статье анализируются произведения великого философа Алишера Навои, в частности «Назм уль-Джавохир» и «Арбаин», с акцентом на тему языковых недостатков. Анализ проводится с использованием сравнительно-типологического метода.



DÜŞÜNCELER	
Rahmonova Shahlo Rashidovna. O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAOL AYOL TASVIRI	135
Abdullayeva N.M. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI MASALALARI	144
Заки Арсланович Алибаев. СОВРЕМЕННАЯ БАШКИРСКАЯ ПОЭЗИЯ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	150
Акжолова Таңнура Нурбековна. КАРЫЛАРГА БОЛГОН МАМИЛЕНИН ЖОМОКТОРДО КАМТЫЛЫШЫ	158
Begmatova Dildora Abdunematovna. MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATI-T- TURK" ASARIDAGI AYRIM MAQOLLAR TASNIFI	163
Erkinova Madinaxon Umid qizi. XALQ DOSTONLARIDA ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO DO'STLIGI TALQINI	171
Mansurova Yulduz Faxriddinovna. MUZAFFAR MIRZO IJODIDA TARIXIY OBRAZLAR TALQINI	175
Nizomjonova Durdona Nizomjonovna. TUSHUNISH - O'RGANISHNING BOSH MEZONI (S. AYNIYNING "ESKI MAKTAB" QISSASI ASOSIDA)	179
Qurbonboyeva Mohidil Isroil qizi. "ARBAIN" VA "NAZM UL-JAVOHIR" DAGI TIL OFATIGA: HIKMATLAR VA HADISLAR HAQIDA	184
Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi. O'ZBEKISTONDA "MAJOLIS"NING O'RGANILISHI	189
Avezova Maktuba To'rayevna. YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA ILOHIY ISHQ TAJALLISI	193
Мухаббат Масадикова Гайбуллаевна, Қойшыбай Арайлым. TÜRK HALK HİKAYELERİNDE ANLATI YAPISI	198
Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna, Almanova Sumbula Usmanovna. ALISHER NAVOIY SHAXSINING JAMIYATDAGI NUFUZI	205
II SHU'BA. HOZIRGI TURKIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI	
Ravshanxo'ja Rasulov. TERMIN – TERMINOLOGIK BIRLIK	213
Mirzaqulov Tursunali O'tayevich. TURKIY TILLAR MORFEMALARI BIRIKUVIDAGI AYRIM CHEKLOVCHI OMILLAR HAQIDA	218
Е.М. Молдасанов, Абдувалитов Н.Б. АНА ТІЛІНІҢ СӨЗ СЫРЫ	222
Axmedova Shaxnozaxon Farxod qizi. TERMIN, ATAMA, SO'ZNING FARQLI VA O'XSHASH XUSUSIYATLARI	227
Esayeva Dilafruz Azamatovna. ONA TILI IMKONIYATLARINI KO'RSATUVCHI TIL BIRLIKLARI	233
Sharipova Xumora Zayniddinovna. OLMOSHLARNING KONTEKSTDA QO'LLANISHI	236
Umarova Diafruz Razzakberdiyevna. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQOTI VA BOSHQA TURKIY TILLAR BILAN TAQQOSI	239

